



O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

Valixanova Nigora Abdulkhoxorovna

Turon universiteti Andijon filiali

Pedagogika va tillar kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent

nigora.valixanova@mail.ru

Akramova Matlubaxon Otabek qizi

Turon universiteti Andijon filiali magistranti

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 6-noyabr 2025-yil Tasdiqlandi: 10-noyabr 2025-yil Jurnal soni: 16-B Maqola raqami: 42 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1330 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS ta'lim mohiyati, baholash, baho, kombinatsiyalangan tekshirish, yozma tekshirish, shkalalash, reyting, test, tarbiyaviy ahamiyat.	Ushbu maqolada o'quvchilar bilimini baholash jarayonining pedagogik zaruriyati, uning ta'lim sifati va o'quv jarayonining samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi. O'quvchilarni rivojlantirishda ularni rag'batlantirish va baholash juda muhimdir. Maqolada baholash o'quvchilarning rivojlanish darajasini, o'rganish samaradorligini va muvaffaqiyatini aniqlashga yordam berishi ko'rsatib o'tilgan. Baholash jarayonida o'quvchilarning ilmiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy rivojlanishi kuzatiladi. Baholash natijalariga ko'ra, o'qituvchilar o'quvchilarga individual yondashuvlar, qo'llab-quvvatlash usullari va dasturlar tuzishlari mumkin. Bunday baholash jarayonlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni rivojlantirishga yo'l ochadi va ularga o'rganishda va amaliy ishlarda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun kerakli yo'l yo'riqlarini qilib borishlariga yordam beradi. Baholash mezonlarining aniq belgilanishi o'quvchilarning o'quv motivatsiyasiga, o'zlashtirish dinamikasiga va mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ta'siri ilmiy dalillar asosida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning bilimini baholash samarali tashkil etilganda, ta'lim jarayoni shaffofligi, o'qituvchi faoliyati samaradorligi va o'quv natijalari sifatining sezilarli darajada oshishini tasdiqlaydi.

Kirish. Ma'lumki, tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan O'zbekistonning ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zaminida ilmiy, barkamol yosh avlodlarni tarbiyalash, ularni o'qitish jarayonida bilimlarini to'g'ri baholay olish, mavjud va rivojlanayotgan bilimlarini turli usul va vositalar orqali rag'batlantirish hozirda dolzarb vazifalardan biri sifatida ta'lim tizimida ilgari surilmoqda. 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmonida¹ maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, 2022-2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur tasdiqlandi². Bu dasturga binoan, o'quvchilarning bilim saviyalarini rivojlantirish, ularni barkamol yosh avlodlar qilib tarbiyalash, shuningdek Vatanga muhabbatli, fidokor va jonkuyar shaxslar sifatida rivoj toptirishda ustozlarning o'rni beqiyosligi va ular ham doimo bilim darajalarini yanada sayqallash uchun harakatdan to'xtamasliklari, o'z ustida tinmay ishlashlari zarurligi haqida fikrlar ham bildirilib o'tildi. Albatta, ta'lim bu – juda ham katta va davomli jarayon hisoblanib, uni bir so'z bilan ta'riflash juda ham mushkul ish. U o'z ichiga ko'plab hodisa va holatlarni, obyekt va subyektlarni jamlagan bo'lib, ta'lim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi demakdir. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatsada, u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning

mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan sari, u ham rivoj topadi va murakkablashadi.

Ta'lim mohiyati – e'tibor bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagogning faoliyatini, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda uqish jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini ham bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi – o'qituvchi va ta'lim olayotgan o'quvchilar faoliyatining yig'indisidan iborat bo'lib, ta'lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatleri, dunyoqarashi, qobiliyati o'sadi. Shuningdek, ta'lim avlodlar o'rtasidagi ma'naviy vorislikni ta'minlaydi va kishilarning ijtimoiy-tarixiy tajribalari yosh avlodga ta'lim orqali o'tadi. Ta'lim esa o'z navbatida eng avvalo oila, mahalla, maktab va boshqa ilm dargohlari orqali paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Barchamizga ma'lumki, o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi maktab hisoblanadi.

Maktabda darslar davomida o'quvchilar o'qituvchilar tomonidan baholanadi, rag'batlantiriladi va xatolari ustida ishlanadi. Buning sababi esa, o'quvchilarni o'quv ko'nikma va malakalarini qay darajada ekanligini aniqlash va ularni yanada sayqallash demakdir.

Adabiyotlar tahlili. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik holatiga ayni mos holda baholash bu – obyektiv baho hisoblanadi. Baho muammosining obyektivligi va shaffofligi - ta'lim nazariyasi va amaliyotida birdan-bir muammo hisoblanadi. Bahoning dasturiy me'yori, aniq, o'quv predmeti nazarda tutilgan holda, o'quvchilarning har bir o'quv faoliyati uchun "algoritm" prinsipi bo'yicha ko'riladi. Bu muammo haqida V. I. Mixeev, A. G. Kovalev, V. V. Usanov, A.A.Kuznitsov, S.I.Goreslavskiy, V. M. Polonskiy, F.M.Axmudova va boshqa pedagog olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. Ta'limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug'ilishini buyuk pedagog Y.A.Komenskiy ham ta'kidlab o'tgan edi. U pedagoglarni o'zlari ega bo'lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta'lim oluvchilarga nisbatan nazoratning obyektiv bo'lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi. Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Umuman, bahoning obyektivligi masalasi pedagogikada yakuniy belgi sifatida o'quvchilarning darsdan so'ngi natijalarini belgilab beradi hamda kelgusida ularni harakatga keltiradigan omil bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'quv jarayonini muvaffaqiyatli olib borishida to'g'ri tanlanib qo'yilgan baho o'quvchilarni rivojlantirishi,

¹ 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli farmoni tahririda - qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-soni

² Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son). <https://lex.uz/docs/5841063>

aktivlashtirishi qolaversa fanga nisbatan qiziqish hosil bo'lishiga olib kelinadi. O'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilarni mashg'ulot davomida aktiv holatda bo'lishlari uchun, izlanishlari uchun baholashning vaqti ham muhim ahamiyat kasb etadi³.

Baholash atamasiga nazar solsak, baho (baho berish) (falsafada) – ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, tarbiya va xulqiga bo'lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan ahloq me'yorlari va tamoyillariga mosligini ko'rsatish (ma'qullash yoki qoralash, rozi bo'lish yoki tanqid qilish)⁴.

Baholash – olingan bilimlar bo'yicha ma'lumotlarni tizimli yig'ish, tahlil qilish va ulardan foydalanish demakdir. Baho o'quvchilarning har birini nimalarni bilish, nimalarni tushunishi va nimalarga qodir ekanligi to'g'risida aniq ma'lumot beradi. Baholash samarali ta'lim olish va o'qitishga xizmat qiladi, ularning natijalari jarayonning barcha ishtirokchilari (o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar) uchun qiymatli bo'lib, o'quv rejalarini va o'qitish metodikasini yaxshilash maqsadida foydalaniladi.

Baho esa o'quvchilarning aniq o'quv sohasidagi umumiy yutuqlarining qisqacha mazmunini ko'rsatadi. Baho ob'yektiv, aniq, haqqoniy, ishonchli va shaffof bo'lishi zarur.

Baholashning o'ziga xos jihatlari S. L. Rubinshteyn, B. G. Anan'ev, V. M. Polonskiy, A. Amonashvili, G. A. Shukina, N. A. Baturin kabi olimlar tahlil qilgan va baholash haqida o'z qarashlarini bildirganlar. Ularning fikrlari o'rganilganda, shu narsa ma'lum bo'ladiki, psixologik-pedagogik adabiyotlarda bahoning mohiyati va ahamiyati degan iborada o'quvchining o'ziga xos xususiyati va uning o'quv faoliyati tushuniladi.

Metodologiya. Baholash – o'quvchilarning yutuqlari, kuchli va zaif tomonlarini hamda keyingi qadamlarni aniqlash orqali o'quvchilarning o'zlashtirishini yaxshilashga qaratilgan. U o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va yaxshilash uchun maxsus ishlab chiqilgan va hujjatlashirilgan vositadi⁵. Shuningdek, baholash – ta'lim jarayonidagi o'sishni belgilab beradigan me'zon ham hosil bo'ladi va u o'z navbatida o'quvchining muayyan standartlarga asoslangan fanlarni qay darajada bilishlik darajasi, shuningdek, o'zining bilim va ko'nikmalariga asoslanib, ma'lum bir mavzuni o'zlashtirish darajasini ko'rsatib beruvchi jarayondir.

O'quvchi o'quv faoliyatining bahosi yuqori darajada ta'minlanishi quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin⁶:

- kichik shaklda (imo-ishorada, ovoznig turlicha o'zgarishida, o'zlashtirish haqida beriladigan tanbehdagi);

- talabalarning umumiy xatti-harakatida (xususiyatida);

- bahoda;

- fikrni bayon etishda (talaba bilan yakka suhbat, ota-onalar majlisida);

- ta'lim muassasasining ichki tartibi nazarda tutilganda.

Baholashdan asosiy maqsadlar:

- o'zlashtirilganlikning qay darajada amalga oshirilganligini aniqlash;

- davlat ta'lim standartlari talablarining qay darajada bajarilganligini aniqlash;

- o'qituvchi va o'quvchining ta'lim jarayonidagi xato va kamchiliklarini aniqlash;

- ta'lim mazmuni va metodikasini rejalashtirish;

- ta'lim berish;

- so'rash va bajartirib ko'rish jarayonida o'quvchining xato hamda kamchiliklarini tuzatish;

- so'rash va bajartirib ko'rish jarayonida boshqalarga takrorlanish va saboq bo'lishini ko'zda tutish singari maqsadlarni o'z ichiga oladi.

Baholash orqali o'zlashtirilganlik to'g'risida ma'lumot olinadi, savol-javob jarayonida boshqa o'quvchilarga takrorlanish bo'ladi, bilim, ko'nikma va malakalar egallanadi hamda mustahkamlanadi, mashg'ulotning qaysi bo'lagiga yaxshiroq e'tibor kerakligi ma'lum bo'ladi, o'qituvchi o'z kamchiliklarini anglaydi, o'quvchi o'zining nimalarga qodir ekanligini biladi, davlat ta'lim standartlarining bajarilish darajasi aniqlanadi shuningdek ta'lim oluvchining o'rtoqlari, ota-onasi uning faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Baholash usul va vositalari o'quvchilarning ma'lumot darajasini aniqlash, ularning tushunish va fikrlashlarini oshirish, ularga

motivatsiya berish va o'quv jarayonini mustahkamlashtirish uchun ham zarurdir. Baholash usullarining samaralaridan foydalanish esa o'quvchilarning qanchalik ma'lumotga ega ekanligini, qanday yo'nalishda yaxshi tushunishiga qarab ularning o'zlashtirilgan bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni baholash usul va vositalari o'qituvchilar uchun ham muhimdir, chunki bu ularga o'quvchilarning rivojlanish darajasini ko'rib chiqish, ularga zarur bo'lgan yordam va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun ham dasturil amal vazifasini o'taydi.

Baho haqiqatdan ham o'quvchini rag'batlantiradi va xato kamchiliklari ustida ishlashi uchun ishora beradi. Chunki, baholash nafaqat o'zlashtirilganlik saviyasini, balki o'quvchilar ichida iqtidor, salohiyat va qobiliyatga ega bolalarni ham aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'quvchilarni muntazam ravishda turli olimpiada va xalqaro tanlovlarda qatnashib, ko'pgina yutuqlarga erishishlari uchun zamin yaratibgina qolmay, kelajakda o'z kasbining yetuk bilimdoni, har sohada kerakli kadrlar bo'lishlari uchun asosiy vazifalarni bajaradi.

Pedagogik baho talaba shaxsiga, talaba va guruh talabalari o'rtasida bo'lgan o'zaro munosabat va fikrning o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi. Baholash ta'siri natijasida talabalarda o'z-o'ziga baho berish, shuningdek, talabchanlik shakllanadi. Keyingi vaqtlarda o'quvchilar faoliyatining muvaffaqiyatligini baholash muammosi bo'yicha yaratilgan psixologik-pedagogik adabiyotlarda baho vazifalari quyidagicha ko'rsatiladi: ijtimoiy, ta'limiy, hayajonli (emotsional), tarbiyaviy, axborotli, yo'naltiruvchi, asosli va ibratli.

Pedagogik amaliyotda baholashning bir qancha usullaridan foydalaniladi. Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi⁷. Og'zaki tekshirish o'quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham atashadi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o'quvchilarga savollar beradi. Biroq, o'quvchilarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin. Ko'pgina fanlarda og'zaki tekshirish o'quvchilarning javoblarini yozma mashqlarni tashkil etish asosida to'ldirib boriladi. Ular o'z javoblarini isbotlash uchun misol keltiradilar. Bu misollarni doskaga yozib, sintaktik va grammatik jihatdan tahlil qiladilar. Matematika, fizika va ximiyadan og'zaki tekshirish qoidaga muvofiq misol va toptiriqlarni amaliy ko'nikma va malakalar baholash maqsadidan kelib chiqib hal etiladi. Keng tarqalganligi va samarali ekanligiga qaramay o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashda og'zaki tekshirish ayrim kamchiliklarga ham ega. Shu bois o'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholashning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun turli shakllardan foydalaniladi.

Og'zaki ommaviy tekshirish o'quvchilardan og'zaki so'rash bo'lib, ular guruhga qaratilgan savollarga javob beradilar. Bunday tekshirishda javoblar qisqa bo'ladi. Mazkur so'rash ko'pchilik o'quvchilarni nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi, ammo o'quvchilarning nutqini o'stirmaydi. Bunday nuqsonlar individual so'rashda ko'zga tashlanmaydi. Ammo so'rashning bu shaklida guruhdagi boshqa o'quvchilarning to'laqonli ishlashlariga erishish juda qiyin.

Kombinatsiyalangan (tezlashtirilgan) tekshirishda o'qituvchi bir necha o'quvchini bir vaqtda doskaga chaqiradi, biri og'zaki javob beradi, 3-4 nafar o'quvchi esa kartochkalar bo'yicha yozma ishni bajarishadi va hokazolar. Bu tekshirishning murakkab usuli bo'lib, o'qituvchidan yetarlicha tajriba va diqqatlarini guruhdagi hamma o'quvchilarga taqsimlay bilishni talab qiladi.

Yozma tekshirish – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng o'quvchilarning

³ <https://studylib.net/doc/25873505/sociol-2021>

⁴ O'zME. (2000) Birinchi jild. Toshkent, yil. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho>

⁵ <https://invento.uz/public/upload/files/Admission/School%20Policies%20Uz/Assessment%20Policy%2022-23%20Uz.pdf>

⁶ Hasanboyeva O., Tolipova G. (2018) **Umumiy pedagogika**. – Toshkent: O'qituvchi.

⁷ Hamidov J., Xoliqov A. (2021) **Didaktika**. – Toshkent: Fan va texnologiya.

bilimlarini nazorat qilish va baholashni tashkil etadi. Yozma tekshirish topshiriq, ya'ni, insho yozish hamda turli nazorat va mustaqil ishlarni bajarishni uyda ham amalga oshirishga imkon beradi. Ushbu jarayonda o'qituvchining bajarilgan ish bilan tanishib chiqishi, uning sifatini tekshirishi uchun ko'p mehnat va vaqt sarflanadi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. O'quvchining butun dars davomidagi barcha faoliyatlarini nazorat qilish tekshirishning maxsus turi bo'lib, u o'quvchining darsdagi ishtiroki uchun ball qo'yish bilan yakunlanadi. Bu o'quvchini doimo harakat qilishga va faollikka undaydi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Uning turli uslublari sifat tavsiflarini miqdoriy o'zgarishlarga aylantirishga yordam beradi.

Reyting nazorati va test usullari ham zamonaviy baholashning muhim vositalari hisoblanadi⁸. Reyting nazorati asosida o'quvchilarning o'quv faoliyatini hisobga olishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so'rovidan nafaqat o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Test – aniq maqsad asosida muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- 1) nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- 2) nazariy va amaliy bilim darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- 3) bir vaqtning o'zida ko'p sonli o'quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- 4) bilim natijalarining o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- 5) barcha o'quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Baholar o'quvchining ma'lum vaqt oralig'ida qancha o'zlashtirganligining qisqa muddatli suratlari bo'lib, ular haqiqiy ish faoliyatini qisman aks ettirgan holda, o'quvchilarning individual rivojlanishi yetarlicha hisobga olinmasligi tanqid qilinadi. Xuddi shunday, uzoq vaqt davomida yomon baholar o'quvchilarda ular juda kam yoki hech narsa o'rganmaydilar degan taassurot qoldiradi, bu esa har bir bolaning yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini ham xavf ostiga qo'yadi. O'rganish istagini allaqachon yo'qotgan va faqat o'z baholari uchun o'qigan bolalar eng yaxshi bahoga erishgandan keyin o'qishni davom ettirish uchun hech qanday sabab topa olmaydilar va bundan tashqari, yomon baholar talabalar uchun salbiy fikr-mulohazalarni bildiradi, chunki ular hech qanday konstruktiv yordam bermaydi, faqat mutlaq asosiy raqamlarni ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'pincha baholash tizimiga bog'liq bo'lgan fikrlash tarzi, yomon baholar kelajakka umidsizlikka olib kelishi, shuningdek, ota-onalar va bolalar o'rtasida hayajon, bosim, stress va tushkunlikka ham olib kelishi ta'kidlanadi. Talabalar ko'pincha o'zlarining kelajak hayoti uchun yoki mol-dunyoga qiziqish uchun emas, balki faqat baholar va tegishli maqom uchun o'rganishlari tanqid qilinadi, bu esa ilmni o'rganishga yordam beradi.

Natija. Bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, o'quvchi o'zini har tomonlama isloh qilishni boshlaydi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, o'qituvchining bahosi o'quvchi ichki ravishda rozi bo'lgandagina foydali tarbiyaviy samaraga olib keladi. Yaxshi ishlayotgan maktab o'quvchilari uchun o'zlarining baholari bilan o'qituvchi tomonidan berilgan baholarning tasodifiy 46% hollarda bo'ladi. Va yomon ishlaydiganlar orasida – 11% hollarda. Boshqa tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchining o'z bahosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik 50% hollarda uchraydi. O'quvchilar

o'qituvchilar talabalarini tushunsalar, baholashning tarbiyaviy samarasi ancha yuqori bo'lishi aniq.

Baholash doimo ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik, sinfdoshlari bilan hamkorlik, shaxsiy psixologiya, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga ham erishish mumkin bo'ladi, ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham aytishimiz mumkin. Ta'lim oluvchi o'rtoqlarining, ota-onalarining unga, uning maktabdagi yutuqlariga va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabatlariga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi va uning bilimlariga berilgan baholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqto'v, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va katta yoshdagilar orasidagi mavqei ham sekin asta shakllantirib boradi. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga ega bo'lib, bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirish orqali maktab jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi, tegishli xulosalar chiqariladi va yo'l yo'riqlar ko'rsatiladi.

Muhokama. Nemis faylasufi va publitsisti Richard Devid Prext o'zining "Anna, die Schule und der liebe Gott: Der Verrat des Bildungssystems an unseren Kindern" kitobida maktab baholari tizimini tubdan tanqid qiladi. U 1 dan 6 gacha bo'lgan raqamlar bolalarning shaxsiyatiga adolat qilmaydi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, na baholar mazmunli, na farqlanmaydi va shuning uchun ham foydali emas deb ta'kidlab o'tadi. Masalan, talabaning ishtiyoqi ortdimi, mavzuga qiziqishi ortdimi, muvaffaqiyatsizlikka qarshi kurashishni yaxshiroq o'rgandimi, yangi g'oyalar ishlab chiqdimi degan savollarga baho bilan javob berib bo'lmaydi. Buning o'rniga, o'quvchilarning o'rganish va rivojlanish yo'llarini tabaqalashtirilgan yozma baholashni taklif qiladi. Uning fikricha, baholash tizimi psixologik va pedagogik jihatdan ma'lumotga ega bo'lmagan davrdan kelib chiqqan va XXI asrga tegishli emas deb xulosalaydi. Ko'pgina davlatlar o'zlarining baholash tizimiga ega va bitta davlatdagi turli muassasalar o'zlarining baholash tizimlari bilan ham farq qilishi mumkindir. Nemis ta'lim innovatori Margret Rasfeld baholar va baholash tizimini foydasiz deb tanqid qiladi va uning fikricha: "Maktab muvaffaqiyatsizlikni hujjatlash uchun emas, balki muvaffaqiyatni tashkil qilish uchundir" deb aytib o'tadi⁹.

O'quvchilar bilimini baholashning pedagogik zaruriyati juda muhimdir. Baholash jarayoni o'quvchilarga o'zlarining bilim darajasini tushunish va o'zlashtirishga yordam berish imkoniyatini beradi. Pedagoglar o'quvchilarning qanchalik ma'lumot egasi ekanligini tushunish uchun turli usul va dasturlarni ishlatishlari kerak. Baholash natijalariga asoslangan ravishda qo'llaniladigan maslahatlar va tavsiyalar ham juda muhimdir. Pedagogik zaruriyatlar bilan amalga oshirilgan baholashning o'quvchilarning o'zlashtirishiga, motivatsiyalarini oshirishiga va bilim darajasini yuqoriga ko'tarishga yordam berishi kerak. Baholash jarayoni ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda o'tkaziladi. Baholashni turiga qarab uning soni, ularning tuzilishi, baholash me'zonlari aynan baholashning maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bu maqsad uchun yaratilgan topshiriq boshqa bir maqsad uchun to'g'ri kelmasligi mumkin. Baholash – ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan me'zonlar asosida o'lchash, natijalarini aniqlash, analiz qilish va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Baholash ta'lim jarayonining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sifatini hamda o'quvchilarni bilim darajalarini doimiy ravishda nazorat qilib borish ta'lim jarayoniga muhim yangiliklar kiritishga dasturi amal vazifasini bajaradi. Bugungi kunda yangi tizim asosida baholashning turli shakllari ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga taqdim etilib kelinmoqda. Baholashdan maqsad – kasbiy ko'nikma va malakalarni baholash, qator masalalarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib olgan. Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan normalar bilan o'zaro bog'liqligi deb tushunamiz. Baholash me'zonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birdamlikda amalga oshiriladi va biz

⁸ Nitko A., Brookhart S. (2016) *Educational Assessment of Students*. – Pearson

⁹ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_\(GPA\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_(GPA))

buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilsak ham bo'ladi.

Bolaning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi, shaxs sifatida kamol topishida tanlagan yo'li, kasb tanlashi, orzu-havaslari qanday ro'yobga chiqarishi birinchi navbatda, uning yoshlikda olgan ta'lim va tarbiyasiga bog'liqdir. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limiy ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi to'g'risida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham muayyan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Baholash natijasida, ta'lim beruvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani tushunmayotganligi, qaysi material yaxshi o'zlashtirilganligi, qaysi biri hali yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi haqida o'quvchilarni baholashdan so'ng ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim beruvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi va o'z ish metodlariga tuzatishlar kiritadi. Shuningdek, baholash natijalari ta'lim beruvchining o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda muhimdir. Baholash natijasida tushuncha

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli [farmoni](#) tahririda - qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-soni
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son). <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Hamidov J., Xoliqov A. (2021) Didaktika. – Toshkent: Fan va texnologiya.

va qonun-qoidalarining qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o'zlashtirilishi aniq, ravshan ko'zga ko'rinadi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qila oladi. Xuddi shuningdek, ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysinisini qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ayon bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi ammo tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi, shuningdek u haqida yetarlicha tushunchasi yo'qligi yoki yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish, yangi bilimlarni analiz-sintez qilish darajalari ham aniqlanadi. Ta'lim oluvchi o'z bilimlariga berilgan baho va tavsiflar asosida maktabdagi o'qish va uydagi mustaqil vazifalarni bajarish uslubini takomillashtirish yoki umuman boshqa yo'nalishga o'zlashtirish, bilimlari, malaka va ko'nikmalaridagi ijobiy tomonlarni rivojlantirish, kamchiliklarni tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Hasanboyeva O., Tolipova G. (2018) Umumiy pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi.
5. Nitko A., Brookhart S. (2016) Educational Assessment of Students. – Pearson
6. [O'zME](#). (2000) Birinchi jild. Toshkent, yil. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Baho>
7. <https://invento.uz/public/upload/files/Admission/School%20Policies%20Uz/Assessment%20Policy%2022-23%20Uz.pdf>.
8. <https://studylib.net/doc/25873505/sociol-2021>
9. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_\(GPA\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Baholash_tizimi_(GPA))